



KONSEPTNING LINGVOMADANIY VA
LINGVOKOGNITIV TADQIQI

Sa'dullayeva Ozoda Zoid qizi

O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Lingvomadaniy va lingvokognitiv yondashuv konseptni tushunishda bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Bu yondashuvlar shaxsga bo'lgan munosabati jihatidan farq qiladi: lingvokognitiv konsept individual tafakkurdan madaniyat tomon bo'lgan yo'nalishni aks ettirsa, lingvomadaniy konsept madaniyatdan individual tafakkur tomon bo'lgan yo'nalishni anglatadi.*

Kalit so'zlar: *Lingvomadaniy va lingvokognitiv yondashuv, konsept, lingvokognitiv konsept, lingvomadaniy konsept, tafakkur.*

Hozirgi kunga kelib konseptlarni o'rganishning bir necha metodikalari ishlab chiqildi. Bugungi kundagi tadqiqotlar uchun konseptual analizni amalga oshirish metod va usullari bir talaygina.

Ba'zi olimlarning fikricha, konsept inson o'rganayotgan obyektning butun borliqdagi ko'rinishlaridir. Konsept deganda, madaniy ahamiyatga ega aqliy faoliyat va falsafiy bilish asosi bilan bog'liq hodisa tushuniladi. E.S. Kubryakova, Y.G.Pankrats va V.Z.Demyankovlarning "Краткий словарь когнитивных терминов" lug'atida berilgan ta'rifiga binoan ideal mavhum birliklar, ma'nolar sifatida ta'riflanadi. Bu birliklar inson faoliyatining natijalari hamda bilish jarayonlarini anglatadi. Konsept shaxs tomonidan borliqning u yoki bu qismini anglab, tasavvur qilish orqali to'plangan axborotdan iborat. Konseptlar kuzatilyotgan hodisalarni jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan yagona, aniq kategoriya va sinflarga jamlaydi³⁸.

Konseptual tahlil qilishdan maqsad "madaniy ahamiyatga ega konseptlarning paradigmasini aniqlash va ularning konseptosferasini ta'riflashdir"³⁹. Bu kabi tadqiqotning obyekti alohida so'zlar, grammatik kategoriyalar yoki matnlar orqali beriladigan fikrlar, shuningdek katakorpusli so'z va leksemalarning badiiy adabiyotda qo'llanilishi nafaqat o'rganilayotgan konseptni ta'riflash, uni strukturasini tuzish, asosiy belgilarini aniqlash imkonini beradi.

V.A. Maslova konseptning struktur xususiyatlariga asoslanib konseptual analizni amalga oshirish metodikalarini ishlab chiqdi. Yadro u yoki bu leksemaning lug'at ma'nosi bo'lib, konseptning mazmunini ochish va uning tildagi ifodasining spetsifikasini yoritishda

³⁸ Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Ком.Книга, 2007. – С.90.

³⁹ Карасик В.И. Языковая личность: аспекты лингвистики и лингводидактики. - Волгоград, 1999. – с.69.



juda katta imkoniyatlarga ega. Periferiya esa subyektiv taasurot, leksemaning turli pragmatik tarkibiy qismlari, konnotatsiyalar va assotsatsiyalardir⁴⁰.

V.I. Karasikning fikriga ko'ra, konseptning ta'riflanishi – uning nomlanishi, unga yaqin ma'no kasb etuvchi birliklarni izohlash bo'yicha ilmiy tadqiqot jarayonidir:

- definitsiya berish- ma'noviy belgilarining aniqlanishi;
- kontekstual analiz – assotsiativ bog'liq ma'noviy belgilarning ajratib ko'rsatilishi;
- etimologik tahlil;
- paremiologik tahlil;
- intervyular, anketalar, kommentlar olish⁴¹.

Konseptlarning tahliliga turlicha yondashuvlar, ularni ta'riflashning turli yo'llari mavjud. Quyida keltirilgan metodikalarga nisbatan ko'proq qo'llaniladi.

1. Kalit so'zning sema tarkibining aniqlanishi.

Turli izohli lug'atlarda konseptning leksik reprezentatsiyasi tahlil qilinadi. Shuningdek diaxron tahlil ham juda ko'p olimlar tomonidan qo'llaniladi: Leksemaning kelib chiqishi haqidagi etimologik ma'lumotlarning to'planishi.

2. Turli hajm va turdagi u yoki bu konseptni verballashtiruvchi leksik paradigmaning tahlili:

a) Kalit so'zning sinonimik qatori. Bunday tahlil ma'nosi yaqin so'zlar bilan kalit so'zni solishtirib, konseptning differensial belgilarini aniqlash;

b) Kalit so'zning leksik-semantik, leksik-frazeologik, assotsiativ-semantik maydonining tahlili. Bu metod nafaqat kalit so'zga sinonimlar, balki antonim, giperonimlar, maydonning yadro va periferiyasini tahlil qilishni ham taqozo qiladi;

d) Kalit so'zning derivatsion maydonining tahlili. Kalit leksemaning derivatsion tahlili, ajratilgan derivativlar semantikasi o'rganilayotgan konseptning qo'shimcha kognitiv belgilarini aniqlashga imkon beradi.

3. Paremiya va aforizmlar materialining tahlili.

Yana bir boshqa olimlar fikricha, konseptni ma'no va tuzilishidan tashqari xususiyatlari ham mavjud. Konseptni barcha qabul qilgan xususiyati ko'p ma'noligi. Uning bu xususiyati uch pog'onada ko'rinadi. Ular quyidagilar:

- sistemada simvol madaniyat tashuvchisi, madaniyatda leksikografiyadan yozib olingan lingvistik holat saqllovchisi;
- til vositasida madaniyat saqllovchisi;
- matnda namoyon bo'luvchi⁴².

Keltirilgan yondashuvlardan tashqari zamonaviy tilshunoslikda konseptni lingvomadaniy talqini ham mavjud.

⁴⁰ Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – М., 2005. – с.98.

⁴¹ Карасик В.И. Языковая личность: аспекты лингвистики и лингводидактики. – Волгоград, 1999. – с.131.

⁴² Слышкин Г.Г. Лингвистика и межкультурная коммуникация. // “Лингвокультурный концепт как системное образование”. – Волгоград, 2004. – № 1. – С.33.



Lingvomadaniy jihatdan konsept madaniyatning asosiy birligi hisoblanib, uning tarkibiga belgilar, etimologiyasi, konsept tarixi, zamonaviy asotsatsiyalari, unga munosabat yoki uni baholash kiradi. Kognitiv va til strukturasini bog'lab turuvchi birlikka konsept deyiladi. Lingvomadaniyatshunoslikda konsept quyidagi til birliklarida ifoda etiladi: leksik va frazeologik birliklarda; nutq birliklarida (so'z birikmasi, gap), grammatik tuzilishda. Keltirilgan til birliklarida konsept o'z mazmunining ma'lum qismini bera oladi. Konseptda lingvistik ifoda vositalari yotadi. Lingvistik vositalar konseptni so'z munosabatida lingvomadaniyatni namoyon qilishi uchun muhimdir. Leksik va frazeologik birlik til sistemasiga kiruvchi kommunikativ jarayonni talab etuvchi konseptlarda yashaydi. Konseptni to'liq anglash uchun bir-biriga o'xshash kategoriyalarni tushunish darkor. Bular qatoriga birinchi navbatda mantiqiy tushuncha va til ma'nolari kiradi⁴³.

Til konseptosferasini tadqiq qilishda bu metoddan foydalanuvchilar mos konseptlarning milliy-madaniy o'ziga xosligi, u yoki bu madaniyat vakilining konseptosferasida mutanosib konseptlarning spetsifikasi va mazmunining aks etishini o'rganishadi. Konseptning so'z-reprezentlarining leksik mosligining tahlili. Bu kabi tahlil odatda badiiy, publisistik matnlar materialini asosida olib borilib, konsept tarkibida simvolik ma'no kasb etadigan belgilarni aniqlashga yordam beradi⁴⁴.

Lingvomadaniyatshunoslikda konseptni bir tomondan so'z, ikkinchi tomondan tushuncha bilan munosabati o'rganiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ким, Н. Д. (2016). Типы предложений и функция сказуемого в корейском языке. *Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика*, (2), 158-164.
2. Камалова, А. Х., & Ким, Н. Д. (2016). СРАВНЕНИЕ ФОНЕТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ В ЯПОНСКИХ И КОРЕЙСКИХ ДИАЛЕКТАХ (на примере диалекта Кансая и литературного японского языка, корейских диалектов Чолладо и Кёнгидо). *Научная дискуссия: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии*, (1), 143-148.
3. Ким, Н. Д. (2017). ПРЕДЛОЖЕНИЕ КАК ОСНОВНАЯ КОММУНИКАТИВНАЯ ЕДИНИЦА В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ (НА МАТЕРИАЛЕ РЕЧЕВЫХ АКТОВ И РЕЧЕВОЙ КОММУНИКАЦИИ). In *ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В НАУКЕ И ОБРАЗОВАНИИ: ТЕОРИЯ, МЕТОДОЛОГИЯ, ПРАКТИКА* (pp. 131-139).

⁴³ Рябова Е.С. Альманах современной науки и образования // "Лингвокультурный концепт как элемент языка и культуры". – М.:, 2012. – №4 (59). – С.187.

⁴⁴ Стернин И.А., Ророва Z.D. Некоторые проблемы выявления национальной специфики языка. Воронеж, 2002. – с.82 2 Маслова В. А. Лингвокультурология. —Москва, 2002. —с.85.



4. Азимова, А. М., & Ким, Н. Д. (2019). К ВОПРОСУ О РОЛИ МОДАЛЬНОСТИ В ЛИНГВИСТИКЕ. In *КУЛЬТУРОЛОГИЯ, ИСКУССТВОВЕДЕНИЕ И ФИЛОЛОГИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ И НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ* (pp. 40-44).
5. Ким, Н. Д., & Хашимова, С. А. (2020). К вопросу о развитии востоковедения в Узбекистане (на примере деятельности факультета китаеведения Ташкентского государственного института востоковедения). *Вестник Удмуртского университета. Серия «История и филология»*, 30(3), 551-560.
6. КИМ, Н. Д. Х. (2020). К ВОПРОСУ О РЕЧЕВОЙ КОММУНИКАЦИИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ (НА МАТЕРИАЛЕ МОДУЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ). *Иностранные языки в Узбекистане*, (1), 58-65.
7. Rakhmonova, D., & Kim, N. (2021). To the question of classification of sentences in Korean language. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 101-103.
8. Kim, N. D. (2021). The question of speech forms (using the example of communicative forms in korean language). *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 17-23.
9. Жуманиязова, Ф. И., & Ким, Н. Д. Х. (2021). КОРЕЙС ТИЛИДА АТАМАЛАР МАСАЛАСИ. In *Молодой исследователь: вызовы и перспективы* (pp. 122-126).
10. Ким, Н., & Акрамова, Ш. (2022). О ПРОБЛЕМЕ КОММУНИКАЦИИ И СОСТАВЛЕНИИ СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 27), 76-80.